



Xonqa tumanidagi

33-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi Ibragimova
Gulnoraning O'qish fanidan "Non isi"
mavzusida yozgan bir soatlik dars
ishlanmasi.

2012-yil

O'qish

I. **Mavzu:** Non isi. (Rivoyat)

II. **Darsning maqsadi:**

- a) Ta'limiy maqsad- Bobomiz Alisher Navoiy merosini o'rganishga doir bilimlarni mustahkamlash. Navoiy hayotiga doir "Non isi" rivoyati bilan tanishtirish.
- b) Tarbiyaviy maqsad- O'quvchilarga nonning aziz ne'mat ekanligini tushuntirish.
- c) Rivojlantiruvchi maqsad-Ravon va qiroat bilan o'qish ko'nikmasini rivojlantirish.

III. **Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi.

IV. **Dars uslubi:** Suhbat, savol-javob

V. **Darsning jihozlari:** A.Navoiyning surati, turli xildagi nonlar rasmi, mavzuga mos rasm.

VI. **Darsning borishi:**

1. **Tashkiliy qism**

2. O'tgan darsdagi "Alisherning yoshligi" matnini mustahkamlash uchun test o'tkazish.

Tetslar

1. Alisherga nima uchun kiyik keltirib berishdi.

A) Boqishuchun

B)Go'shti uchun

2. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

Eng zo'r zaruriyat.....

A) Merganlik, botirlik

B)Maktab

3. Alisherning do'sti kim bo'lishni orzu qildi.

A) Mergan

B)Shoir

3. "Bilimlar xovuzchasi" usulidan foydalanish. Bu usuldan foydalanish uchun sinf 5 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga 1 tadan "Bilimlar xovuzchasi" tarqatma ko'rgazmasi tarqatiladi.

- Guruhdagi o'quvchilarga konvertdagi 6 ta kartochkani olib, kartochkaning 3 tasiga Amir Temur o'gitini, 3 tasiga Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari yozib qo'yiladi.
- "Bilimlar xovuzchasi" ning bitta cho'ntagiga Alisher Navoiy, bitta cho'ntagiga Amir Temur deb yozib qo'yiladi.
- Guruh o'quvchilari kartochkadagi o'gitlarni cho'ntakka mosiga solib chiqishlari kerak. Har bir cho'ntak ichida 3 tadan to'g'ri solinganiga qarab baholanadi.

4. O'tgan mavzu xulosalanadi.

5. Yangi mavzuga tayyorgarlik

Nonning qanaqa turlarini bilasiz?

Obi non, patir, shirmoy non, jizzali non

Nonning hidi qanaqa bo'ladi?

- Hushbo'y

6. Matnni ifodali o'qib berish.

7. Lug'at ishi

- Davlat arbobi – davlatni boshqarishda qatnashuvchi kishi.

- So'z mulkining sultoni – Alisher Navoiy juda ko'p so'z bilgani uchun unga shunday ta'rif berishgan.

- Hushbo'y – yoqimli hid

8. O'uvchilarni oldinda tayyorlab qo'yilgan kichik sahna ko'rinishi qo'yiladi.

- Bir o'quvchiga Husayn Boyqaro ro'lida.

- Uchta o'quvchi saroy amaldorlari ro'lida.

- Bitta o'quvchi Navoiy

- Bitta o'quvchi muallif ro'lida chiqishadi.

Husayin Bayqaro: Dunyodagi eng xushbo'y narsani keltiring.

Muallif: deb qolibdi. Vazir unga bir quchoq gul keltiribdi.

Sulton: -Yo'q.

Muallif: debdi.

Vazirlar nima qilishni bilmay, o'ylayverib boshlari qotibdi.

Oxiri topolmasdan Alisher Navoiyga murojaat qilishibdi.

Navoiy bir savat non bilan saroyga yetib boribdi. Bir zumda saroyni non isi tutibdi.

Husayn: -rahmat, do'stim.

Muallif: debdi Husayn Boyqaro nonni ko'rib.

Husayn: - yangi yopilgan non isini istayotgan edim, topib kelibsiz.

9. Sahna ko'rinishi tugagandan keyin savol- javob o'tkazish.

1. Husayn Boyqaro nima keltirishni buyurdi?

2. Uning mulozimlari nima keltirishdi?

3. Vazirlar kimga murojat qilishdi?

4. Alisher Navoiy saroyga nima keltirdi?

10. Matnni mustaqil o'qishga berish. Matnni besh qismga bo'lib 5 ta o'quvchiga o'qitish.

11. Nima uchun nonning hidi eng hushbo'y bo'lishi haqida suhbat uyishtirish. Nonning juda ko'p insonlar mehnati hosilasi, bug'doy ekilishidan boshlanadigan dehqon mehnati haqida bug'doyni un qilish va undan onalarimiz non tayyotlashgacha mashaqqatli mehnati haqida so'zlab berish.

12. "Kubik " o'yinidan foydalanish:

Har bir guruhga bittadan kubik berib chiqiladi. Kubikni oltita tomoniga nonga doir maqollarning so'zlari yoziladi. Shu so'zlarni o'rni-o'rniga qo'yib maqolni topish topshirig'i beriladi.

Nonni qilmagin uvol: nonning uvog'i ham non.

Maqolni to'g'ri topganiga qarab baholanadi.

13. Test

Eng hushbo'y va aziz nemat nima?

A) qalampir munchoq

B)non